

## 2020– yilning yanvar–iyun oylarida Buxoro viloyatining qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi

Dastlabki ma'lumotlarga koʻra, 2020– yilning yanvar–iyun oylarida qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 8 925,9 mlrd. soʻmni yoki 2019– yilning mos davriga nisbatan 103,3 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar – 8 832,3 mlrd. soʻmni (103,2 %), oʻrmon xoʻjaligi – 62,2 mlrd. soʻmni (102,1 %), baliq xoʻjaligi – 31,4 mlrd. soʻmni (110,2 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi tarkibida Buxoro viloyatining ulushi 9,2 % ni tashkil etdi.

**8 925,9****Buxoro viloyati boʻyicha  
qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi  
mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. soʻm**

01

**8 832,3** Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik  
va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar

02

**62,2** Oʻrmon xoʻjaligi


03

**31,4** Baliq xoʻjaligi

### Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘shish sur‘ati




### Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi (%)



- O‘rmon xo‘jaligi
- Baliq xo‘jaligi
- Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar
- Dehqonchilik
- Chorvachilik
- Ovchilik va qishloq xo‘jaligi sohasidagi xizmatlar

2020–yilning yanvar–iyun yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 98,9 % i – dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar, 0,7 % i – o‘rmon xo‘jaligi, 0,4 % i – baliq xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi.


### **Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi**



2020–yilning yanvar–iyun oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Jondor (1 183 mlrd. so‘m) va Buxoro (1 086 mlrd. so‘m) tumanlariga qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kogon shahri (5 mlrd. so‘m), Buxoro shahri (108 mlrd. so‘m) va Qorovulbozor tumani (220 mlrd. so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

Viloyat ko‘rsatkichidan (103,3 %) yuqori o‘shish sur‘atlari Jondor (114,5 %), Buxoro (104,3 %), Peshku (103,3 %) va Qorovulbozor (103,3 %) tumanlarida kuzatildi. Buxoro shahrida (86,9 %), Kogon shahrida (94,7 %), Olot (99,5 %), Vobkent (100,6 %), Qorako‘l (100,9 %), Kogon (101,3 %), Romitan (102,2 %), G‘ijduvon (102,3 %), va Shofirkon (102,9 %) tumanlarida esa aksincha o‘shish sur‘atlari pastligi kuzatildi.

## Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati



### Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2020–yilning yanvar–iyun oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 8 809,6 mlrd. so'mni yoki 2019–yilning mos davriga nisbatan 103,2 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 3 645,5 mlrd. so'mni (104,2 %), chorvachilik mahsulotlari – 5 164,1 mlrd. so'mni (102,4 %) tashkil qildi.


### Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi

**41,4 %**  
Dehqonchilik  
mahsulotlari



**58,6 %**  
Chorvachilik  
mahsulotlari

**Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari  
hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)**




**Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida  
dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi**



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 80,8 % i – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 17,7 % i – fermer xo'jaliklariga, 1,5 % i – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

**Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%)**




2020-yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida (56,5%), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Olot tumanida (91,2%), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Kogon shahrida (12,8%) qayd etildi.

Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich Olot tumanida (8,4%), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng kam ulushi Qorovulbozor tumanida (39,3%), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Olot tumanida (0,4%) qayd etildi.


## **Dehqonchilik**

2020–yilning yanvar–iyun oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 3 645,5 mlrd. so‘mni yoki 2019–yilning mos davriga nisbatan 104,2 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 41,4 % ni tashkil qildi.

## **Donli ekinlar**



**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2020–yilning yanvar–iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 349,3 ming t. donli ekinlar (2019–yilning yanvar–iyuniga nisbatan 3,0 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Jami don ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, don ishlab chiqarish umumiy hajmidan 84,0 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.




**Buxoro viloyati bo'yicha  
donli ekinlar yetishtirish  
hajmi, tonna**




## Sabzavotlar


**Hajmi, ming t.**



**O'sish sur'ati**




**Ishlab chiqarilgan  
mahsulotning xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi**



- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**




2020–yilning yanvar–iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 244,9 ming t. sabzavotlar (2019–yilning yanvar–iyuniga nisbatan 5,3 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sabzavot ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 88,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.


**Buxoro viloyati bo'yicha  
sabzavotlar yetishtirish  
hajmi, tonna**

## Kartoshka


**Hajmi, ming t.**



**O'sish sur'ati**



**Ishlab chiqarilgan  
mahsulotning xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2020–yilning yanvar–iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 144,7 ming t. kartoshka (2019–yilning yanvar–iyuniga nisbatan 2,6 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Kartoshka ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, kartoshka ishlab chiqarish umumiy hajmidan 96,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Buxoro viloyati bo'yicha  
kartoshka yetishtirish  
hajmi, tonna**




## Poliz


**Hajmi, ming t.**




**O'sish sur'ati**



**Ishlab chiqarilgan  
mahsulotning xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2020– yilning yanvar–iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 18,4 ming t. poliz (2019– yilning yanvar–iyuniga nisbatan 50,4 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Poliz ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, poliz ishlab chiqarish umumiy hajmidan 51,3 % i fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Buxoro viloyati bo'yicha  
poliz yetishtirish  
hajmi, tonna**




## Meva va rezavorlar


**Hajmi, ming t.**



**O'sish sur'ati**



**Ishlab chiqarilgan  
mahsulotning xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2020–yilning yanvar–iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 144,6 ming t. meva va rezavorlar (2019–yilning yanvar–iyuniga nisbatan 2,5 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Meva va rezavorlar ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, meva va rezavorlar ishlab chiqarish umumiy hajmidan 65,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Buxoro viloyati bo'yicha  
meva va rezavorlar  
yetishtirish  
hajmi, tonna**




## Uzum


**Hajmi, ming t.**



**O'sish sur'ati**



**Ishlab chiqarilgan  
mahsulotning xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2020–yilning yanvar–iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 4,2 ming t. uzum (2019–yilning yanvar–iyuniga nisbatan 9,0 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Uzum ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, uzum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 80,2 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



**Buxoro viloyati bo'yicha  
uzum yetishtirish  
hajmi, tonna**




### Chorvachilik



2020– yilning yanvar– iyun oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 5 164,1 mlrd. soʻmni yoki 2019– yilning mos davriga nisbatan 102,4 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 58,6 % ni tashkil etdi.


Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish boʻyicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam koʻrsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining koʻpayishiga, ichki isteʼmol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan toʻldirishga imkon yaratdi.




2020– yilning yanvar– iyun oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan tirik vaznda 120,4 ming t. goʻsht (2019– yilning yanvar– iyuniga nisbatan 3,1 % ga koʻp), 434,8 ming t. sut (2,7 % ga koʻp), 196,8 mln. dona tuxum (7,1 % ga kam), 2 235,0 t. jun (7,3 % ga koʻp), 355,4 ming dona qorakoʻl teri (13,0 % ga kam) ishlab chiqarildi va 1 848,4 t. baliq (6,8 % ga koʻp) ovlandi.

**Go'sht (tirik vaznda)**


**Hajmi, ming t.**



**O'sish sur'ati**



**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2020– yilning yanvar–iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 120,4 ming t. go'sht (2019– yilning yanvar–iyuniga nisbatan 3,1 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Go'sht ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 94,7 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.




**Buxoro viloyati bo'yicha  
go'sht (*tirik vaznda*)  
yetishtirish hajmi, tonna**




## Sut


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan  
mahsulotning xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020–yilning yanvar–iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 434,8 ming t. sut (2019–yilning yanvar–iyuniga nisbatan 2,7 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 94,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



**Buxoro viloyati bo'yicha  
ishlab chiqarilgan  
sut hajmi, tonna**




## Tuxum


**Hajmi, mln. dona**



**O'sish sur'ati**



**Ishlab chiqarilgan  
mahsulotning xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2020–yilning yanvar–iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 196,8 mln. dona tuxum (2019–yilning yanvar–iyuniga nisbatan 7,1 % ga kam) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 65,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.




**Buxoro viloyati bo'yicha  
olingan tuxum  
hajmi, ming dona**




**Baliq**


**Hajmi, t.**



**O'sish sur'ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**




2020–yilning yanvar–iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1 848,4 t. (2019–yilning yanvar–iyuniga nisbatan 6,8 % ga ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 64,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.



**Buxoro viloyati bo'yicha  
ovlangan baliq  
hajmi, tonna**



**Chorva mollari va parrandalar bosh soni**


2020– yining 1– iyul holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 5,8 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 93,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,1 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 11,7 % i fermer xo'jaliklariga, 80,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 7,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishi, otlar umumiy sonidan 27,8 % i fermer xo'jaliklariga, 65,0 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 7,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 18,1 % i fermer xo'jaliklariga, 59,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 22,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

2020–yilning 1–iyul holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1 214,2 ming taga yetdi.


2019–yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 13,2 ming taga (1,1 %) ko‘paydi.

### Yirik shoxli qoramollar


**Soni, ming bosh**



**O‘sinh sur‘ati**



**Bosh sonining  
xo‘jalik toifalari  
bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2020–yilning 1–iyul holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 93,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



**Buxoro viloyati  
bo'yicha yirik shoxli  
qoramollarning umumiy  
bosh soni, ming bosh**




2020– yilning 1– iyul holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 393,1 ming taga yetdi.


2019– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni – 4,8 ming taga (1,2 %) ko‘paydi.

### Sigirlar


**Soni, ming bosh**



**O‘sish sur‘ati**



**Bosh sonining  
xo‘jalik toifalari  
bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020– yilning 1– iyul holatiga ko‘ra, sigirlar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 93,8 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



**Buxoro viloyati  
bo'yicha sigirlarning  
umumiy bosh soni,  
ming bosh**




2020–yilning 1–iyul holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 2 159,0 ming taga yetdi.


2019–yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar bosh soni – 42,5 ming taga (2,0 %) ko‘paydi.

## Qo‘y va echkilar


**Soni, ming bosh**



**O‘sish sur‘ati**



**Bosh sonining  
xo‘jalik toifalari  
bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020–yilning 1–iyul holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilarning 80,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



**Buxoro viloyati bo'yicha  
qo'y va echkilarning  
umumiy bosh soni,  
ming bosh**




2020–yilning 1–iyul holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni 5 741 taga yetdi.


2019–yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni – 430 taga (8,1 %) ko‘paydi.

### Otlar


**Soni, bosh**



**O‘shish sur‘ati**



**Bosh sonining  
xo‘jalik toifalari  
bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2020–yilning 1–iyul holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami otlarning 65,0 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



**Buxoro viloyati  
bo'yicha otlarning  
umumiy bosh soni, bosh**



2020– yilning 1– iyul holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni 4 733,0 ming taga yetdi.


2019– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni – 56,2 ming taga (1,2 %) ko‘paydi.

### Parrandalar


**Soni, ming bosh**



**O‘sish sur‘ati**




**Bosh sonining  
xo‘jalik toifalari  
bo‘yicha taqsimlanishi**



- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020– yilning 1– iyul holatiga ko‘ra, parrandalar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 59,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.

**Buxoro viloyati bo'yicha  
parrandalarning  
umumiy bosh soni,  
ming bosh**

Qishloq xo'jaligi va ekologiya  
statistikasi bo'limi

• 65-223-66-58  
• 65-223-72-59